

**BOSHLANG`ICH TA`LIMDA ILMIY SAVODXONLIKNI
RIVOJLANTIRISH VA RAQAMLI DUNYONI O`RGANISH METODIKASI****G.M.Haydarova***ChDPU, boshlangich ta'lim nazariyasi va amaliyoti**kafedrasi o'qituvchisi***Sh.H.Olimboyeva***Chirchiq davlat pedagogika universiteti**Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning raqamli texnologiya va savodxonlikni oshirishda ta'lim olish maqsadi, imkoniyatlari va raqamli dunyo haqida bilim berish va ularni komil inson sifatida tarbiyalashdan iborat.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiya, savodxonlik, raqamli dunyo, imkoniyat, faoliyat, pedagog, o'quvchi, metod, ma'lumot.

Boshlang'ich ta'limda ilmiy savodxonlikni oshirish va raqamli dunyoni rivojlantirish hamda boshlang'ich ta'limda o'qitish savodxonligi borasida bir nechta g'oyalar, takliflar hamda maqsadlar va loyihalar amalga oshirilib kelmoqda .

Iqtidorli pedagoglar boshlang'ich ta'lim o'quvchilarga dars o'tishi ularni dunyoviy va dini bilimlar bilan boyitib borishi hamda kelajakda yetuk kadr bo'lib faoliyatolib boradigan yoshlarni tarbiyalash davlatning, o'qituvchi pedagoglarning nafaqat oilaning o'rni juda kattadir. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga, bilim o'rgatish, ular bilan individual shug'ullanish hamda raqamli savodxonlikni o'rgatish hozirgi zamon talabidir .

Savodxonlik bu keng tushuncha bo'lib bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi bo'lib, ona tilida o'qish, yozish va matematikada faqat bu fanlar bilan cheklanib qolmasdan tabiiy, jismoniy fanlardan olgan bilimlarning mujassamlashganidir. Savodxonlik tushunchasini hamda axborot haqida ma'lumot berish va kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanganligi tufayli darsga oid



turli xil metodlar qo'llash hamda slaydlar tayyorlanilishi tufayli keng ma'noda o'quvchilarga tushuntirilib kelmoqda.

Boshlang'ich ta'limda ilmiy savodxonlikni rivojlantirish, shakllantirishda o'quvchilarda tanqidiy fikrlashi hamda o'z fikrini to'liq bayon qila olishi hamda o'z tengdoshlari oldida o'zini erkin tutishi hamda o'z mahoratini ko'rsata olishi o'z nutqini to'liq va ravon bayon eta olish qobiliyati shakllanib borishi bu o'qituvchining eng katta vazifalaridan biridir. Bu qobiliyatlarni o'quvchida rivojlantirish uchun o'quvchilar bilan dars mobaynida juda ko'p darsga oid savol javoblar qilinishi, turli xil metodlar qo'llanilish o'quvchilarni darsda faol bo'lishga undashi hamda tengdoshlari bilan birlashib harakat qilishni o'rgatish kerak bo'ladi.

Hozirgi kunda boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga zamonaviy usulda darslar berib boriladi bu darslar asosan zamonaviy texnologiyalarning bo'lishi ya'ni har bir o'qitish xonasida zamonaviy texnologiyalar televizor katta proektrlar, elektronni doskalarning bo'lishi hamda xonaning o'quvchilarga xos ravishda jihozlar bilan bezatilganligi ham o'quvchi yoshlar uchun, ularning ilmiy savodxonligini oshirish hamda dunvoyiv bilimlarni o'rgatish, yaxshi bilim egallashi uchundir. Har bir o'quvchining o'qish savodxonligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumot va metodlar o'quvchilarga qo'llanilishi orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishiga olib keladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitish savodxonligini rivojlantirishda o'quvchilar bilan dars o'tish davomida ularni guruh bo'lib ishlashiga, o'z tengdoshlari bilan erkin muloqot qila olishi hamda bir birlarini hurmat qilishni ham o'rgatibo'tishi kerak bo'ladi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga dar berish mobaynida faqatgina darsni oddiy tarzda o'tkazibgina qolmasdan o'quvchilarni chalg'itib dars yuzasidan turli xil savollar berib borishi hamda turli xil chalg'ituvchi metodlardan foydalanib ularni ham aqlan ham jismonan rivojlantirib borishi kerak bo'ladi. Dars o'tish mobaynida o'quvchilar bilan ham jismonan ham aqlan turli xil mashqlar bajarib o'tishlari mumkun bo'ladi. Jismoniy mashqlar ya'ni ko'z mashqlari, qo'l mashqlari, tana mashqlarini qilish orqali ham o'quvchilarning darsni yanada diqqat bilan



kuzatishiga har xil hayollarga berilmasdan hamma diqqatini bir joyga jamlashi yani darsga qaratishi kuchayadi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga dars o'tish moboynda turli xil tabiiy-ilmiiy savodxonligini oshirishda turli xil metodlar qo'llash mumkun. Masalan, o'tgan mavzuni takrorlab mustahkamlab olish uchun "Sirli quticha" metodini qo'llashimiz mumkin, bu metod asosan o'tgan darslarni mustahkamlab olishi uchun va yanada chuqurroq o'zlashtirib olishi uchundiri. Bu metodni qoidasi bitta qutichaga o'tgan mavzular bo'yicha savollar yoziladi hamda musiqa qo'yiladi bu quticha o'quvchilar orasida qo'lma qo'l bo'ladi va musiqa to'xtashi bilan quticha kimni qo'lida bo'lsa quticha ichidan o'quvchi bitta savol oladi va shu savolga javob beradi hamda o'quvchi bergan to'g'ri javobi uchun rag'batlantiriladi va o'yin yana davom etadi sh tariqa o'quvchilar bilan dars mustahkamlab boriladi va o'quvchilar orasida darsda faol bo'lmagan o'quvchilar ham o'z-o'zidan darsda qatnashadilar hamda ularning faolligi oshib boradi va shu bilan birga darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanib boradilar. Bunaqa metodlar juda ko'p buning uchun o'qituvchi pedagoglar dars o'tish mobaynida juda diqqatli va kuzatuvchan bo'lishi kerak bo'ladi, bunda o'qituvchilar dars o'tishda o'quvchilarni sinchkovlik bilan kuzatishi kerak chunki har bir bolada turlicha qobiliya rivojlangan bo'ladi ba'zi bir bolalar o'z qobiliyatini to'laligicha ko'rsatib bera olmaydilar. O'quvchilarda nutqni rivojlantirish hamda tengdoshlari orasida o'zini erkin tutushi uchun o'qituvchi bolalar orasida turli xil metodlar qo'llashi elektron doskalardan foydalanishi kerak bo'ladi. Buning natijasida o'quvchilarni birlashtirish bir-biri bilan jipslasha olishi o'quvchilar darsda o'z fikrini to'liq bayon qila olishalariga juda katta samara beradi. Ayrim o'quvchilar boshqa tengdoshlariga nisbatan tortinchoq bo'lishi mumkin, shuning uchun ham o'qituvchi dars berish bilan birga o'quvchilar uchun qiziqarli metod va slaydlarni ham qo'llashi kerak bo'ladi.

O'quvchilarga dars o'tishda faqat og'zaki dars o'tmasdan kompyuter texnologiyalardan ham foydalanishi kerak bo'ladi, darsg doir slaydlar tayyorlash internet olami bilan ham tanishtirib borishi mumkin ya'ni dunyo yangiliklari hamda yurtimizda bo'layotgan yutuqlar haqida hamda o'quvchi yoshlar uchun



berilayotgan kengdan keng imkoniyatlar haqida ma'lumot berib o'tishi ham kerak bo'ladi. Shu bilanbirga darsga oid qiziqarli ma'lumotlar va savollar berib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Raqamli dunyoni o'quvchilarga o'rgatish bu o'quvchilarning o'rganishi va ilmiy jihatdan chuqurroq yondashishiga hamda muloqat etikasi va erkin fikrlarni bayon etish faolligini oshirib borishiga yordam beradi. Raqamli texnologiyani o'quvchilarga o'rgatishdan maqsad o'z tengdoshlari bilan nafaqat o'z tengdoshlari balki imkoniyati cheklangan bolalar bilan ham erkin muloqotga kirisha olishi uchun hamda erkin va mustaqil fikrga ega bo'lgan holatda suhbatlar olib borishidadir. O'quvchilar raqamli dunyoni o'rganishi juda katta ahamiyatga egadirlar bunda o'quvchilarga juda katta ko'makni faqatgina o'qituvchilar emas balki ota - onalarning birlashib ish olib borishi ham katta ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytganda o'quvchi yoshlarni ilim egallashida raqamli savodxonlik bilan birgalikda ilmiy savodxonlikning ham o'rni juda kattadir. Bu yosh kelajaklarning raqamli savodxonlikga bo'lgan bilimlarini oshirish hamda madaniyat va etikani shakllantirishda juda zarurdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akbarova.J.I " O'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish"
2. Akramzanov.M.Y va Sadullayev.A.D "Boshlang'ich sinfda o'qish savodxonligini oshirish "
3. Qadirberganov. M. O "Raqamli dunyoni o'rganish "
4. Akhmedov, B. A., Askarova, M. R., Xudayqulova, F. B., Tojiboeva, G. R.
5. Artikova, N. S., Urinova, N. S., . & Omonova, S. M. (2022). PEDAGOGICAL SCIENCE EDUCATION MANEGMENT IN TEACHING SCIENCE OF PEDAGOGICAL SCIENCES. Uzbek Scholar Journal, 10, 529-537
6. Artikova, N. (2022). THE IMPORTANCE OF PIRLS RESEARCH IN INCREASING THE READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Журнал иностранных языков и лингвистики, 6(6), 91-98.



7. Abdullayeva U.T. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llanilishi // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2023. Volume 2, Issue 1, 95-101 b.
8. Madraximova, I. B., & Muminov, Z. S. (2022). Abdulla Qahhor hikoyalarida ruhiyat tasviri. *Заманагөй тәлим ҳам тәрбия технологиялары*, 1(1), 358-359.
9. Haydarova Gulruh. O'zbek tili taraqqiyotida baynalmilal so'zlarning ahamiyati./ O'zbekiston Milliy universiteti xabarлари/2023, 1/4/4/ 306-308 betlar.
10. Haydarova G,M SEMANTIC GROUPS OF WORDS INTRODUCED THROUGH RUSSIAN IN THE EXPLANATORY DICTIONARY OF THE UZBEK LANGUAGE [Текст] / Haydarova G,M // INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT. — 2024. — № 3. — С. 414-420.